

O‘ZBEKISTON - G‘ALABA SARI MASHAQQATLI YO‘L: URUSH YILLARIDA XALQ BIRDAMLIGI VA FIDOYILIGI

Toirov Xusan Suban o‘g‘li

Guliston davlat universiteti, psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix 2.24 gurux talabasi

Email. toirovx16@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi (1941–1945) yillarida O‘zbekistonning front va front ortidagi o‘rni, xalq birdamligi hamda fidoyiligining asosiy ko‘rinishlari tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqotda respublikadan safarbar etilgan inson resurslari, mudofaa jamg‘armalariga mablag‘ to‘plash, tank va samolyotlar uchun ommaviy kompaniyalar, frontga issiq kiyim-kechak hamda oziq-ovqat yuborish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini urush ehtiyojlariga yo‘naltirishning ko‘lami va uning ijtimoiy oqibatlari (ta‘minot tanqisligi, ichki iste‘molning cheklanishi) ochib beriladi. Maqolada front gazetalarining ruhiy-ma‘naviy safarbarlikdagi o‘rni ham alohida qayd etilib, urush davri tajribasining tarixiy xotira va bugungi avlod tarbiyasidagi ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston, front orti, safarbarlik, mudofaa jamg‘armasi, mehnat fronti, qishloq xo‘jaligi, ta‘minot, front gazetasi, tarixiy xotira.

Kirish

Ikkinchi jahon urushi nafaqat jahon siyosiy xaritasini, balki Sovet Ittifoqi tarkibidagi respublikalar, jumladan O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va demografik tarkibini ham tubdan o‘zgartirgan tarixiy sinov bo‘ldi. 1941–1945 yillarda respublika front uchun inson resurslari, moddiy mablag‘ va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini safarbar etgan holda “front orti tayanchi” vazifasini bajardi. Shu bilan birga, urush sharoitida mehnat frontidagi ommaviy safarbarlik, xayriya jamg‘armalari, ta‘minot tizimi, jamoatchilik tashabbuslari hamda matbuotning (xususan, front gazetalarining) ruhiy-ma‘naviy safarbarlikdagi roli alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur maqolada urush yillarida O‘zbekiston jamiyatida shakllangan birdamlik va fidoyilik omillari, mudofaa jamg‘armalariga ko‘mak, frontni oziq-



ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini markazlashgan tarzda jo'natish jarayonlari manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi urush davri tajribasini raqamlar va dalillar orqali yoritish hamda bu jarayonlarning ijtimoiy oqibatlarini tarixiy nuqtayi nazardan izohlashdan iborat

Ikkinchi jahon urushi yillaridagi O'zbekistonning o'rni va ijtimoiy tarixini to'g'ri anglash kelajak avlodlar uchun ham muhim sanaladi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan, davlatimiz tomonidan urush qatnashchilari va mehnat fronti faxriylariga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilayotgani, bu boradagi hukumat qarorlari, urush yillarida xalqimiz ko'rsatgan fidoyilik xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan. Ayniqsa, 1941–1945 yillardagi urush frontiga O'zbekistondan 1,5 milliondan ortiq odam safarbar etilgan, shundan ko'plari urushda halok bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan, ko'plab yurtdoshlarimiz asoratlar bilan qaytib kelgan. Masalan, birgina Andijon viloyatidan harbiy xizmatga jalb etilganlarning sezilarli ulushi xalqning fidoyiligini ko'rsatadi. Urushning tarixiy haqiqatlarini xalqaro ilmiy manbalar va matbuot materiallari yordamida chuqur o'rganish bu davr voqealarini to'liq anglash uchun muhim omil sanaladi. Ayniqsa, o'sha yillarda faol bo'lgan front gazetalarining o'rni va ahamiyati ham jurnalistlar mehnati misolida alohida e'tirof etilgan [4].

1939-yil 1-sentabrda Germaniya Polshaga bostirib kirdi va shu bilan Ikkinchi jahon urushi boshlandi. Bu qisqa muddatda Yevropaning ko'plab mamlakatlarini, so'ngra esa butun dunyoni o'z domiga tortdi. Urush arafasida, ya'ni 1939-yil 23-avgustda Germaniya va Sovet Ittifoqi o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risidagi bitim imzolandi. Ushbu bitim natijasida Polsha hududi ikki davlat o'rtasida bo'linib olindi. Keyingi oylarda SSSR G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belarusni bosib oldi, Boltiqbo'yi davlatlarini o'ziga qo'shib oldi va Finlyandiya bilan urush olib bordi. Germaniya esa G'arbiy Yevropada tez-tez muvaffaqiyatga erishdi.

Natijada, 1941-yil 22-iyunda Germaniya SSSRga hujum qildi va urush yanada keng ko'lamli tus oldi. Aynan shu tarixiy davrda Sovet Ittifoqi tarkibidagi O'zbekiston ham urushga jalb qilindi. Respublikamiz front va front ortida, harbiy va iqtisodiy sohalarida fidokorona mehnat qilishga majbur bo'ldi [5]. Urushning dastlabki kunlaridanoq o'zbekistonliklar mudofaa jamg'armasi tashkil etish va uni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etdilar. Ishchilar, dehqonlar va ziyolilar bir kunlik ish haqlari, shanbalikda topilgan pullar, shaxsiy jamg'armalar va



qimmatbaho buyumlarini jamg'armaga topshirdilar. Urush davrida aholidan 649,9 million so'm pul va 22 kilogramm oltin hamda kumush yig'ilgani tarixiy manbalarda qayd etiladi. Mahalliy aholi bilan birga turli diniy tashkilotlar va ular vakillari ham moddiy va ma'naviy yordam berish ishlari, mamlakat mudofaasini qo'llab-quvvatlashda sezilarli hissa qo'shdi. Harbiy texnika, xususan, tank kolonnalari va jangovar samolyotlar uchun mablag' yig'ish harakati keng tus oldi. Masalan, "O'zbekiston kolxozchisi" tank kolonnasini yaratish uchun 1942-yil dekabr oyida kolxozchilar 260 million so'm mablag' to'plagan

Bundan tashqari, frontdagi askarlarga issiq kiyimlar, poyabzal va oziq-ovqat mahsulotlari jo'natish bo'yicha aholi faol ishtirok etdi. Urushning dastlabki olti oyida o'zbekistonliklar tomonidan 421,5 mingdan ortiq issiq kiyim yuborilgan bo'lib, bu xalqimizning vatanparvarligi va insonparvarlik fazilatlaridan dalolat beradi [2].

Abdurahmon Bodirovning "Samarqand Ikkinchi jahon urushi yillarida" asarida ta'kidlanishicha, 1941-yilning avgust oyidayoq viloyatdagi barcha zavod, fabrika, korxona va muassasalar, shuningdek jamoa xo'jaliklari ishchi va xizmatchilari mudofaa fondiga 5500 so'm naqd pul to'plab bergan. Shu bilan birga, Qishloq, xo'jalik instituti xodimlari ham 30 ming so'mlik obligatsiyalarni fondga topshirgan. Davlat universiteti o'qituvchi va xodimlari esa har oyda bir kunlik ish haqlarini mudofaa fondiga berishga qaror qilgan.

Ushbu asarda keltirilishicha, viloyatda tank kolonnasi va samolyotlar qurish uchun aholidan katta miqdorda mablag' jamg'arish ishlari avj olgan. Masalan, Komsomol (hozirgi Tayloq) tumani mahalliy aholisi, 4 431 000 so'm, G'allaorol tumani 1 519 000 so'm, Kattaqo'rg'on 2 757 000 so'm va Payariq tumani 2 544 000 so'm mablag'ni fondga topshirgan. 1942-yilning dekabrigacha Samarqand viloyati bo'yicha jami 40 million so'mdan ortiq mablag' davlat banklariga topshirilgan.

Bodirov ma'lumotiga ko'ra, front uchun yordam ko'rsatishda jamiyatning barcha qatlamlari faol ishtirok etgan. Hatto bolalar ham frontga yordam fondlariga o'z hissalarini qo'shishgan: temir-tersak va metall mahsulotlarini yig'ishgan, kolxoz va fermalarda mehnat qilib, ishlab topgan pullarini jamg'arishgan. Urush yillarida maktab o'quvchilari tomonidan 284 ming so'm mamlakat mudofaa fondiga topshirilgan.

Muallif ta'kidlaganidek, tank va samolyotlar qurish uchun maxsus kompaniyalarda respublika kolxozlari tomonidan katta summalar yig'ilgan va bu



maqsadlarga 1942-yilda 260 million so‘m atrofida mablag‘ jamg‘arilgan. 1943-yil boshigacha esa umuman mamlakat bo‘ylab 368 million so‘mdan ortiq pul to‘plangan [1].

Urush yillarida respublika hukumati, viloyat va tumanlar rahbarlari qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ham katta e‘tibor berdilar. Urush yillarida respublikamiz mehnatkashlari 4 million 800 ming tonna paxta, 54 ming tonnadan ziyod pilla, 1 million 300 ming tonnaga yaqin g‘alla, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57 ming tonnadan ortiq ho‘l meva va uzum, 36 ming tonna quruq meva, 1 561 ming tonna go‘sht, qariyb 23 ming tonna jun yetishtirdilar [6].

Narzulla Jo‘rayev va Shodi Karimovning “O‘zbekiston tarixi: O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida” asarida qayd etilishicha, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida yetishtirilgan mahsulotlar “100 foiz” urush manfaatlariga safarbar qilinganini alohida ta’kidlaydi.

Bu holat sanoat mahsulotlari, paxta va don bilan cheklanmay, sabzavotchilik, polizchilik va bog‘dorchilik mahsulotlarigacha qattiq nazorat ostida frontga jo‘natilganini anglatadi. Demak, resurslar taqsimotida harbiy ehtiyojlar mutlaq ustun bo‘lib, ichki iste‘mol va aholi turmushi ikkinchi darajaga tushib qolgan.

Asarda arxiv hujjatlari ma‘lumotlariga tayangan holda, 1943-yil hosildan 1944-yil 15-yanvariga qadar front manfaatlariga 12 941 tonna kartoshka, 10 263 tonna sabzavot mahsulotlari va 6 368 tonna achitilgan hamda tuzlangan mahsulotlar (karam, pomidor, bodring) jo‘natilgani keltiriladi. 1944-yil mart oyiga qadar esa 17 802 tonna kartoshka, 11 392 tonna sabzavot va 9 812 tonna achitilgan-tuzlangan mahsulotlar topshirilgani qayd etiladi. Bu raqamlar jo‘natmalar miqdori urushning keyingi bosqichlarida kamaymaganini, aksincha, oshib borganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bunday ko‘lamdagi jo‘natmalar mahalliy ta‘minotdagi tanqislikni kuchaytirgan omillardan biri bo‘lganini anglash mumkin [3]. Ana shunday qiyinchiliklarga qaramasdan o‘zbek xalqi ozining shijoati va matonati bilan mardonovor xizmat qilib ikkinchi jahon urushida erishilgan g‘alabaga katta hissasini qo‘shgan.

Xulosa

Urush yillarida O‘zbekiston aholisining safarbarlik darajasi va mehnat frontidagi faolligi respublikaning g‘alabaga qo‘shgan hissasini belgilagan asosiy omillardan biri bo‘ldi. Mudofaa jamg‘armalariga mablag‘ to‘plash, tank va samolyotlar qurilishi uchun kompaniyalar, frontga issiq kiyim va oziq-ovqat



yuborish kabi tashabbuslar jamiyatning turli qatlamlari — ishchi, dehqon, ziyoli va hatto bolalargacha — umumiy maqsad yo‘lida birlashganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xalq xo‘jaligi mahsulotlarining deyarli to‘liq front ehtiyojlariga yo‘naltirilishi ichki ta‘minotda tanqislik va turmush sharoitlarining og‘irlashuviga olib kelganini ham inkor etib bo‘lmaydi. Demak, urush davridagi birdamlik va fidoyilik ikki yoqlama tarixiy mazmunga ega: bir tomondan, bu g‘alabani yaqinlashtirgan ulkan safarbarlik va jamoaviy mas’uliyat namunasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u aholining kundalik hayotida keskin cheklovlar va ijtimoiy bosimlar bilan kechgan murakkab jarayon edi. Mazkur maqolada keltirilgan dalillar urush yillarida O‘zbekiston “front orti tayanchi” sifatida faoliyat yuritganini, bu tajriba esa bugungi tarixiy xotira va ijtimoiy birlikni anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qilishini tasdiqlaydi

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bodiroy, A. Samarqand Ikkinchi jahon urushi yillarida. Samarqand: Zarafshon, 2015. 25–26-b.
2. Jo‘rayev, M.; Nurullin, R.; Kamolov, S. va boshq. O‘zbekistonning yangi tarixi: O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent: Sharq, 2000. 437–438-b.
3. Jo‘rayev, N.; Karimov, Sh. O‘zbekiston tarixi: O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. Toshkent: Sharq, 2011. 471–475-b.
4. Shamsutdinov, R. Ikkinchi jahon urushi va front gazetalari. Toshkent: Akademnashr, 2017. 4-b.
5. Shamsutdinov, R.; Karimov, Sh. Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). Toshkent: Sharq, 2010. 336 b.
6. Siddiqov, M. B. Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan buxorolik jangchilar: Buxoro matbuoti sahifalari. Toshkent: Sadriddin Salim Buxoriy (Durdona nashriyoti), 2019. 212 b.

Research Science and
Innovation House

